|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH<br>YO'NALISHLARI .....                                                                          | 1798 |
| O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich                                                                                                                                  |      |
| ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC<br>DISEASES IN CHILDREN .....                                                                | 1802 |
| Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna                                                                     |      |
| ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ<br>СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....                          | 1807 |
| Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи                                                                                                               |      |
| ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS<br>XUSUSIYATLARINING TAHLILI .....                                                       | 1816 |
| Turebekov Anvarbek Adilbekovich                                                                                                                                      |      |
| SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                                  | 1822 |
| Xamroqulov M.J.                                                                                                                                                      |      |
| O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY<br>VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....                    | 1826 |
| Azimjon Musamuxamedov                                                                                                                                                |      |
| AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI<br>FOYDALANISH YO'LLARI .....                                                                  | 1832 |
| Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi                                                                                                                   |      |
| ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ<br>ЗАВЕДЕНИЯХ .....                                                                                      | 1837 |
| Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна,<br>Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли                                 |      |
| INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI .....                                                                                              | 1843 |
| Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li                                                                                                                                     |      |
| ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН<br>НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ<br>ИХ УСТРАНЕНИЯ..... | 1847 |
| Холмуратов Джахонгир Салимбек угли                                                                                                                                   |      |
| O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA<br>INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI .....                                                       | 1854 |
| Djalilov Dostonbek Abduazizovich                                                                                                                                     |      |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ<br>УЗБЕКИСТАН .....                                                                            | 1859 |
| Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна                                                                                                        |      |
| YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI:<br>XORIY TAJRIBASI.....                                                                          | 1865 |
| Roza Xudayberganova                                                                                                                                                  |      |
| RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH<br>ISTIQBOLLARI .....                                                                    | 1871 |
| Kuvotova Dilnora Kaxramonovna                                                                                                                                        |      |
| КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ .....                                                                                                | 1876 |
| Бекимбетова Гулнора Маратовна                                                                                                                                        |      |
| MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI<br>DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI .....                                            | 1882 |
| Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich                                                                                                                                    |      |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.)<br>YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI .....                                                | 1889 |
| Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi                                                                                                                                    |      |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX<br>SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI .....                                                            | 1894 |
| Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi                                                                                                                   |      |



|                                                                                                                     |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI .....                       | 1899 |
| E.U. Azizov, X.D. Sarabekov                                                                                         |      |
| INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ..... | 1905 |
| Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna                                                          |      |
| BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....                                                               | 1910 |
| Kasimov Baxtiyor Usmanovich                                                                                         |      |
| XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....        | 1914 |
| Matniyazova Iqboloy Baxramovna                                                                                      |      |



# XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI

**Matniyazova Iqboloy Baxramovna**

Iqtisodiyot fanlari

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: iqboloy.m.@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xorazm viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishning hozirgi holati va asosiy tendensiyalari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida viloyatga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarning hajmi va tarkibi, shuningdek, ularning sanoat, qishloq xo'jaligi hamda xizmatlar sohaslariga ta'siri statistik va iqtisodiy tahlil usullari asosida baholanadi.

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarning hududiy iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda aholi turmush sifatini oshirishdagi roli aniqlanadi. Olingan empirik natijalar asosida investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy investitsiya siyosatini takomillashtirish va hududiy barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kaliit so'zlar:** mintaqaviy iqtisodiyot, investitsiya, infratuzilma, investitsiya siyosati, iqtisodiy o'sish.

**Abstract.** This article provides an in-depth analysis of the current state and key trends in the effective use of foreign investment in the development of the economy of the Khorezm region. In the course of the study, the volume and structure of foreign investments directed to the region, as well as their impact on industry, agriculture, and the service sector, are assessed using statistical and economic analysis methods.

In addition, the role of foreign investment in promoting regional economic growth, increasing employment, developing social infrastructure, and improving the quality of life of the population is determined. Based on the empirical results obtained, scientific conclusions are drawn and practical recommendations are developed to improve the investment climate, enhance mechanisms for attracting foreign investment, and increase their effectiveness. The research results are of significant scientific and practical importance for further improving regional investment policy and ensuring sustainable regional economic development.

**Key words:** regional economy, investment, infrastructure, investment policy, economic growth.

**Аннотация.** В статье представлен углублённый анализ текущего состояния и основных тенденций эффективного использования иностранных инвестиций в развитии экономики Хорезмской области. В ходе исследования на основе методов статистического и экономического анализа оцениваются объёмы и структура иностранных инвестиций, направляемых в регион, а также их влияние на промышленность, сельское хозяйство и сферу услуг.

Кроме того, определена роль иностранных инвестиций в обеспечении регионального экономического роста, повышении уровня занятости, развитии социальной инфраструктуры и улучшении качества жизни населения. На основе полученных эмпирических результатов сформулированы научные выводы и разработаны практические рекомендации, направленные на улучшение инвестиционного климата, совершенствование механизмов привлечения иностранных инвестиций и повышение их эффективности. Результаты исследования имеют важное научное и практическое значение для дальнейшего развития региональной инвестиционной политики и обеспечения устойчивого экономического роста.

**Ключевые слова:** региональная экономика, инвестиции, инфраструктура, инвестиционная политика, экономический рост.



## KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xorijiy investitsiyalar muhim moliyaviy hamda texnologik manba hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar nafaqat kapital oqimini oshiradi, balki zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ilg'or boshqaruv tajribasini tatbiq qilish hamda xalqaro ishlab chiqarish va savdo tarmoqlariga integratsiyalashuvni jadallashtirish orqali mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlaydi. Shu bois, mintaqaviy darajada xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish masalalari hozirgi globallashtirish sharoitida alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Xususan, Xorazm viloyati kabi mintaqalarda xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va ularni samarali boshqarish mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, transport-logistika, energetika hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish orqali mintaqaning investitsion jozibadorligini yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalar mintaqada innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, raqobat muhitini yaxshilash hamda mahalliy tadbirkorlik subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa aholi turmush darajasi va ijtimoiy farovonlikni oshirish, mintaqaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, Xorazm viloyatida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishning institutsional, iqtisodiy va tarkibiy omillarini chuqur tahlil qilish, ularning mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash hamda investitsiya siyosatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy investitsiyalarning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri masalasi iqtisodiyot nazariyasi va amaliy tadqiqotlarda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlar asosan neoklassik o'sish nazariyasi, yangi endogen o'sish modellari hamda mintaqaviy rivojlanish konsepsiyalariga tayanadi. Mazkur yondashuvlarda xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Dunning (1988) tomonidan ishlab chiqilgan OLI (Ownership–Location–Internalization) paradigmasiga ko'ra, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayoni mintaqaning tabiiy-resurs salohiyati, infratuzilma darajasi, institutsional muhit hamda bozor hajmi bilan bevosita bog'liqdir [1]. Ushbu yondashuv xorijiy investitsiyalarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishini izohlashda keng qo'llaniladi.

Borensztein, De Gregorio va Lee (1998) esa rivojlanayotgan mamlakatlar misolida xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, biroq bu ta'sir inson kapitali darajasi yetarli bo'lgan sharoitda yanada samarali namoyon bo'lishini empirik jihatdan asoslab bergan [2].

Mintaqaviy iqtisodiyot doirasida olib borilgan tadqiqotlarda xorijiy investitsiyalarning sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnologik transfer jarayonlarini jadallashtirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi roli alohida e'tirof etiladi. Alfaro va boshq. (2004) xorijiy investitsiyalarning moliya bozorlari rivojlangan hududlarda yuqori iqtisodiy samara berishini ko'rsatib bergan [3]. Shuningdek, Blomström va Kokko (2003) tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalar orqali texnologik bilimlarning tarqalishi (spillover effects) mintaqaviy iqtisodiy o'sishni sezilarli darajada tezlashtirishi ta'kidlanadi [4].

COVID-19 pandemiyasi va global iqtisodiy beqarorlik sharoitida xorijiy investitsiyalarning barqaror rivojlanishga ta'siri ham zamonaviy tadqiqotlarda muhim yo'nalishga aylandi. Van Nguyen va boshq. (2021) tomonidan olib borilgan izlanishlarda xorijiy investitsiyalar iqtisodiy inqiroz sharoitida ishlab chiqarish tarmoqlarini tiklash hamda bandlik darajasini saqlab qolishda muhim amortizator vazifasini bajargani asoslab berilgan [5]. Shu bilan birga, Jahon banki va UNCTAD hisobotlarida investitsion muhitni yaxshilash mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishning asosiy sharti sifatida qayd etiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ham xorijiy investitsiyalarning mintaqaviy rivojlanishga ta'siri masalasi keng yoritilgan. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o'ynashi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shu bilan birga, mintaqalar o'rtasidagi investitsion tafovutlar, infratuzilma darajasi hamda institutsional omillar xorijiy investitsiyalarni jalb etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi [6].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarning mintaqaviy iqtisodiy o'sishga ta'siri ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning namoyon bo'lish mexanizmlari har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga qarab farqlanadi. Xususan, Xorazm viloyati kabi mintaqalar kesimida xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ta'sirini ekonometrik modellar asosida baholash masalasi hali yetarli darajada



chuqur o'rganilmagan. Shu bois, ushbu tadqiqot mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni yanada boyitishga qaratilgan bo'lib, xorijiy investitsiyalarning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini empirik jihatdan aniqlashni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

2024-yilda global miqyosda xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 1,5 trillion AQSh dollariga yetib, 2023-yilga nisbatan 4 % ga oshdi. Biroq mazkur o'sish asosan moliyaviy tranzit markazlari orqali amalga oshirilgan qisqa muddatli investitsiyalar hisobiga to'g'ri kelib, barqaror rivojlanish uchun zarur bo'lgan uzoq muddatli investitsiyalar ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda [7].

O'zbekiston uchun 2024-yilda jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 2,836 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 6,7 % ga oshgan. Xususan, 2025-yilning birinchi choragida Xorazm viloyatiga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 3,41 milliard AQSh dollariga yetib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 127,8 % o'sishni ko'rsatdi [8]. Ushbu raqamlar viloyatning investitsion jozibadorligi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Xorazm viloyatida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash kabi muhim maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olish, investitsiya muhitini yaxshilash va infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Xorazm viloyati O'zbekistonning yuqori rivojlanish salohiyatiga ega hududlaridan biri bo'lib, mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish muhim rol o'ynaydi. Viloyatning geostrategik joylashuvi, ishlab chiqarish salohiyati, tabiiy va mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi uni investorlar uchun jozibali hududga aylantiradi. Shu bois, Xorazm viloyatini rivojlantirishga qaratilgan investitsiya siyosati mintaqaning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Xorazm viloyatida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishning bir qator ustuvor yo'nalishlari mavjud. Avvalo, viloyat iqtisodiy sektorlarini rivojlantirishda xorijiy kapitalni keng integratsiya qilish zarur. Bu, eng avvalo, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport-logistika, energetika, turizm va infratuzilma sohalariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, agroindustriya, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish mintaqaning iqtisodiy o'sishiga kuchli turtki berishi mumkin.

Ikkinchi muhim yo'nalish investitsiya muhitini yanada yaxshilashdan iborat. Mintaqaning investitsiya jozibadorligini oshirish uchun davlat organlari, tadbirkorlar va xorijiy investorlar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Amaldagi qonunchilik va soliq siyosatini takomillashtirish, investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir muhim jihat infratuzilmani rivojlantirish hisoblanadi. Xorazm viloyatida transport va logistika, energetika, suv ta'minoti, axborot texnologiyalari hamda kommunikatsiyalarni modernizatsiya qilish xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun mustahkam zamin yaratadi. Shuningdek, hududiy investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xorazm viloyatidagi xorijiy investitsiyalarni samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish natijasida viloyat iqtisodiy o'sish sur'atlarini yanada jadallashtirish mumkin. Buning uchun davlat tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya siyosatini izchil yo'naltirish, investitsiyalarni samarali taqsimlash hamda ularning natijadorligini nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mahalliy resurslardan samarali foydalanish, mahsulotlarni eksportga yo'naltirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi viloyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishning o'ziga xos jihatlari, avvalo, mintaqaning tabiiy-iqtisodiy resurslari, geografik joylashuvi hamda ijtimoiy infratuzilmasining holati bilan bevosita bog'liqdir. Viloyatning qishloq xo'jaligi salohiyati, ayniqsa, paxtachilik, bog'dorchilik va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sohalarida xorijiy investorlar uchun muhim ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarida texnologik yangilanishga bo'lgan ehtiyoj xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini bermoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida investitsiya loyihalarining samaradorligi ko'p jihatdan innovatsion yo'nalishlarga yo'naltirilganlik darajasiga bog'liq. Xususan, raqamli texnologiyalarni





joriy etish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hamda “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida ekologik toza texnologiyalarni qo'llash xorijiy investorlar uchun jozibadorlikni oshirmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi, balki mintaqada ekologik barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar ulushini oshirishga ham xizmat qiladi.

Prognozlarga ko'ra, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasiga jalb qilinadigan umumiy xorijiy investitsiya oqimlarining qariyb 10 % ga o'sishi kutilmoqda. Ushbu ijobiy tendensiya Xorazm viloyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, yangi investitsiya loyihalarining ishga tushirilishi, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish jarayonlarini jadallashtiradi. Natijada, viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmining o'sishi, bandlik darajasining oshishi hamda aholi daromadlarining ko'payishi uchun iqtisodiy asoslar mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, investitsiya siyosatini samarali amalga oshirishda davlatning institutsional roli alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, investorlarga qulay huquqiy muhit yaratish, soliq va bojxona imtiyozlari berish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish hamda infratuzilma loyihalarini rivojlantirish Xorazm viloyatining investitsiyaviy jozibadorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Transport-logistika tizimining takomillashtirilishi va energetika infratuzilmasining barqarorligi esa investorlar uchun uzoq muddatli kafolat vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida iqtisodiy diversifikatsiyaga alohida e'tibor qaratish zarur. An'anaviy sohalar bilan bir qatorda sanoatni chuqur qayta ishlash, xizmatlar sektori, turizm hamda raqamli iqtisodiyot yo'nalishlariga investitsiyalarni kengaytirish mintaqaning tashqi iqtisodiy barqarorligini oshiradi. Bu esa Xorazm viloyatining nafaqat milliy iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlashga, balki xalqaro iqtisodiy makonda raqobatbardosh hudud sifatida shakllanishiga ham zamin yaratadi.

Umuman olganda, amalga oshirilgan tahlillar xorijiy investitsiyalar Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Investitsiya oqimlarini innovatsion va ekologik yo'naltirilgan sohalarga samarali taqsimlash, institutsional muhitni takomillashtirish hamda hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda investitsiya siyosatini olib borish mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. Xorazm viloyati bo'yicha investitsiyalar va qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari [9]

| Ko'rsatkichlar                                                                         | Yillar  |         |         |          |          |                             |
|----------------------------------------------------------------------------------------|---------|---------|---------|----------|----------|-----------------------------|
|                                                                                        | 2020    | 2021    | 2022    | 2023     | 2024     | 2025-yil<br>yanvar–<br>iyun |
| Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar – jami, mlrd so'm                     | 5 391,8 | 8 292,0 | 8 769,7 | 11,666.1 | 15,624.1 | 9,628.9                     |
| Uy-joylarning umumiy maydoni, ming m <sup>2</sup>                                      | 694,5   | 1 020,8 | 1 072,9 | 1 186,9  | 1,303.8  | 648.5                       |
| Umumta'lim maktablari, ming o'quvchi o'rni                                             | 12,1    | 13,6    | 8,2     | 6,8      | 2.3      |                             |
| Kasalxonalar, ming yotoq                                                               | 0,6     | 0,1     | 0,3     | 0,2      | -        |                             |
| Poliklinika muassasalari, shu jumladan qishloq vrachlik punktlari, smenada ming qatnov | 0,4     | 0,2     | 0,4     | 0,6      | 0.1      |                             |
| Qurilish ishlari, mlrd so'm                                                            | 2 856,8 | 4 228,5 | 4 878,4 | 5,766.6  | 11,503.9 | 6,000.8                     |

Jadvalga ko'ra, Xorazm viloyatidagi asosiy ko'rsatkichlar 2020–2025-yillar davomida ijobiy o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, 2020-yilda 5 391,8 mlrd so'mni tashkil etgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2025-yilga kelib 9 628,9 mlrd so'mga yetishi prognoz qilinmoqda. Mazkur holat viloyatga jalb etilayotgan xorijiy va ichki investitsiyalar hajmining izchil oshib borayotganini hamda ularning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Ushbu investitsiyalar sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasi kabi asosiy tarmoqlarda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirmoqda.



Shu bilan birga, tahlillar uy-joy qurilishi sohasida muvozanatni yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, 2020-yilda foydalanishga topshirilgan uy-joylar umumiy maydoni 694,5 ming m<sup>2</sup>ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkichning 648,5 ming m<sup>2</sup> atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Bu holat resurslarning boshqa ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirilayotganini anglatib, uy-joy qurilishi sohasiga investitsiya oqimlarini yanada faollashtirish zarurligini ko'rsatadi. Chunki uy-joy qurilishi mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib, aholi turmush darajasini oshirishda bevosita rol o'ynaydi.

Ta'lim infratuzilmasi bo'yicha olib borilgan tahlillar umumta'lim maktablari quvvati 2020–2021-yillarda 12,1 mingdan 13,6 ming o'quvchi o'rnigacha oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2025-yilda ushbu ko'rsatkichning 2,3 ming o'quvchi o'rnigacha shakllanishi kutilmoqda. Mazkur holat ta'lim sohasida mavjud infratuzilmaning samarali ishlatilayotganini ko'rsatsa-da, uzoq muddatda demografik o'sish va ta'lim sifati talablarining ortib borishi sharoitida yangi maktablar qurish hamda mavjud ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan investitsiyalarni kuchaytirish zarurligini taqozo etadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi investitsiyalar viloyatda ijtimoiy infratuzilmaning muhim tarkibiy qismi sifatida izchil rivojlanib bormoqda. Kasalxonalar va poliklinika muassasalari faoliyatining kengayishi tibbiy xizmatlar sifati va qamrovini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, 2025-yilga kelib mazkur sohada o'sish sur'atlarining nisbatan barqarorlashishi kutilmoqda, bu esa so'nggi yillarda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari natijasida tibbiy infratuzilmaning muayyan darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Kelgusida sog'liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalar, telemeditsina va zamonaviy diagnostika usullarini keng joriy etish orqali investitsiyalar samaradorligini yanada oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar Xorazm viloyatida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. Shu munosabat bilan, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, ustuvor tarmoqlarga yo'naltirilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Viloyatda amalga oshirilayotgan investitsiya va qurilish loyihalari ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, bandlik darajasini oshirish hamda hududning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, 2025-yilga prognoz qilinayotgan ayrim ijtimoiy sohalaridagi o'sish sur'atlarining nisbatan sekinlashuvi xorijiy investitsiyalarni yanada faol jalb etish va ularni yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishlarga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- xorijiy investitsiyalarni uy-joy qurilishi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga maqsadli yo'naltirish mexanizmlarini kuchaytirish;
- ijtimoiy infratuzilma loyihalarida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi investitsiya modellarini keng joriy etish;
- investitsiya muhitini yanada yaxshilash orqali uzoq muddatli va innovatsion investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan institutsional islohotlarni izchil davom ettirish;
- mintaqaviy investitsiya siyosatini ishlab chiqishda hududning demografik, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarini kompleks tarzda inobatga olish.

Mazkur takliflarning amaliyotga izchil va tizimli joriy etilishi Xorazm viloyatida xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Natijada mintaqada investitsiya oqimlarining barqarorligi ta'minlanib, ishlab chiqarish tarmoqlarida texnologik modernizatsiya jarayonlari jadallashadi hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish kengayadi. Shu bilan birga, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishi hamda xizmatlar sifati oshishi orqali mintaqaviy iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashadi. Pirovardida, ushbu jarayonlar aholi bandligi va daromadlari o'sishini ta'minlab, ijtimoiy farovonlikni mustahkamlash hamda aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dunning, J. H. (1988). The eclectic paradigm of international production: A restatement and some possible extensions. *Journal of International Business Studies*, 19(1), 1–31. <https://doi.org/10.1057/palgrave.jibs.8490372>
2. Borensztein, E., De Gregorio, J., & Lee, J. W. (1998). How does foreign direct investment affect economic growth? *Journal of International Economics*, 45(1), 115–135. [https://doi.org/10.1016/S0022-1996\(97\)00033-0](https://doi.org/10.1016/S0022-1996(97)00033-0)
3. Alfaro, L., Chanda, A., Kalemli-Ozcan, S., & Sayek, S. (2004). FDI and economic growth: The role of local financial markets. *Journal of International Economics*, 64(1), 89–112. [https://doi.org/10.1016/S0022-1996\(03\)00081-3](https://doi.org/10.1016/S0022-1996(03)00081-3)
4. Blomström, M., & Kokko, A. (2003). The economics of foreign direct investment incentives. NBER Working Paper Series, No. 9489. National Bureau of Economic Research.
5. Nguyen, K. V., Nguyen, Q. H., & Nguyen, T. T. (2021). Foreign direct investment and economic resilience during the COVID-19 pandemic: Evidence from emerging economies. *Economic Analysis and Policy*, 71, 123–135. <https://doi.org/10.1016/j.eap.2021.05.006>



6. Asqarova, N. I. (2023). Regional aspects of attracting foreign investments in Uzbekistan's economy. Journal of Central Asian Economic Studies, 5(2), 45–58.
7. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2024). Global foreign direct investment falls for the second consecutive year, posing acute challenges. <https://unctad.org/news/global-foreign-direct-investment-falls-second-consecutive-year-posing-acute-challenges>
8. Invexi. (2025). Investment climate of Uzbekistan: Steady growth in the first quarter of 2025-year. <https://invexi.org/press/investment-climate-of-uzbekistan-steady-growth-in-the-first-quarter-of-2025/>
9. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. (2025). Investitsiyalar bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlari. <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---